

**Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish  
tarmoq markazi  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 278-son qarori bilan tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazining (keyingi o'rinlarda – tarmoq markazi deb ataladi) faoliyatini belgilaydi.

2. Tarmoq markazining maqsadi – oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifatini takomillashtirish, ularning bilimi va kasbiy mahoratini aniq yo'nalishlar (mutaxassisliklar) bo'yicha iqtisodiyot sohaslarining tezkor rivojlanib borishiga uyg'unlashtirish, tarmoqdagi innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, tegishli sohalarda bo'yicha yangi texnika va texnologiyalarni professor-o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirishlariga ko'maklashishdan iborat.

3. Tarmoq markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'limning tegishli yo'nalishlari bo'yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishni amalga oshirish hamda ular bo'yicha zamonaviy metodik, axborot-resurs bazasini yaratish;

xorijiy mutaxassislarni shartnoma asosida, shuningdek mahalliy konstruktorlik-texnologik muassasalar va respublikadagi yirik korxonalar rahbarlarini taklif etgan holda, eng avvalo, yuqori va innovatsiya texnologiyalari sohasida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

ta'limning ishlab chiqarish bilan samarali o'zaro hamkorligini, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga ko'chma mashg'ulotlar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarga tashriflar joriy etilishini ta'minlash;

tarmoq markazlarida, shu jumladan ishlab chiqarish, tadqiqot, loyihalash-qidiruv tuzilmalarining moddiy-texnikaviy bazasidan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv va moddiy-texnikaviy bazani yaratish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning, innovatsion ilmiy yutuqlarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarning istiqbolda rivojlanishini hisobga oluvchi dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.

4. Oliy ta'lim muassasalarining pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Tarmoq markazi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tarmoq vazirliklari hamda ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

5. Tarmoq markazi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z ustaviga, mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida hisob raqamlariga ega bo'ladi.

## **II. Tarmoq markazining faoliyat yo'nalishlari va o'quv jarayonini tashkil etish**

6. Tarmoq markazi o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda tashkil etadi:

respublikaning tegishli iqtisodiyot sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari uchun ta'lim jarayonini tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda tarmoqdagi texnik va texnologik taraqqiyotning darajasiga mos ravishda rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshirishda tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan keng foydalanishni tashkil etish.

7. Tarmoq markazida mashg'ulotlarning quyidagi turlari joriy qilinadi: ma'ruzalar, amaliy va seminar mashg'ulotlari, ko'chma mashg'ulotlar, tajriba almashish bo'yicha mahorat darslari, mustaqil ish va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy o'qitish tizimi qo'llaniladi.

8. Tarmoq markazining yo'nalishlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Bosh ilmiy-metodik markazning tavsiyasiga ko'ra Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

9. Tarmoq markazida o'rnatilgan tartibda tegishli soha korxonasi va tashkilotlari xodimlari uchun to'lov-shartnoma asosida malaka oshirish kurslari tashkil qilinishi mumkin.

10. Tarmoq markazida o'quv jarayoni tinglovchilarning asosiy ish faoliyatidan ajralgan holda olib boriladi:

qayta tayyorlash – 4 oydan kam bo'lmagan muddatda (576 soat);

malaka oshirish – umumiy hajm 1 oydan kam bo'lmagan muddatda (144 soat).

O'rnatilgan tartibda ruxsat etilgan soha xodimlari uchun shartnoma asosidagi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining muddati tegishli shartnoma shartlariga asosan belgilanadi.

Tinglovchilarning asosiy ish faoliyatidan ajralmagan holdagi qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv jarayoni muddatlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

11. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari uchun belgilangan vaqt me'yorlariga asosan Tarmoq markazi professor-o'qituvchilarning yillik o'quv, metodik, ilmiy va boshqa turdagi yuklamalari hajmi aniqlanadi.

12. Tarmoq markazi professor-o'qituvchilari qayta tayyorlash va malaka oshirish sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-uslubiy faoliyatni, o'quv jarayoniga zamonaviy uslub va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq qilish ishlarini olib boradilar, ular uchun Bosh ilmiy-metodik markaz seminar-treninglar tashkil qiladi.

13. Tarmoq markaziga tinglovchilarni qabul qilish oliy ta'lim muassasalari buyurtmalari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga asosan amalga oshiriladi.

14. Tinglovchilarning xizmat safari bilan bog'liq bo'lgan harajatlari o'rnatilgan tartibda ularning asosiy ish joylaridan qoplanadi.

15. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish uch yilda bir martadan kam bo'lmagan davriylikda amalga oshiriladi

16. Tarmoq markazi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha elektron bazani shakllantirish uchun zarur resurslarni tayyorlaydi, tegishli ta'lim resurslarini yangi axborotlar bilan doimiy yangilab boradi.

17. Tarmoq markazi faoliyati bo'yicha Bosh ilmiy-metodik markazga, tegishli vazirlik va idoralarga hisobot taqdim etib boradi.

18. Tarmoq markazidagi ta'lim sifatini monitoring qilish maqsadida Bosh ilmiy-metodik markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi hamda tegishli vazirlik bilan hamkorlikda tarmoq markazi pedagog kadrlarining malaka darajasini tahlil qiladi.

### **III. Tarmoq markazining moliyalashtirilishi va moddiy-texnik ta'minoti**

19. Tarmoq markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari quyidagilar:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun davlat byudjetidan yillik parametrlari doirasida ajratilgan mablag'lar;

shartnoma asosida o'qitishdan tushgan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning o'z xohishiga ko'ra qilgan hadyalari va maqsadli badallari;

qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalar.

20. Tarmoq markazi tegishli oliy ta'lim muassasasining, shuningdek, zarur hollarda tegishli soha korxonasi va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasidan foydalanishi mumkin.

### **IV. Tarmoq markazining tinglovchilariga hujjat berish**

21. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim dasturlari talablarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchilarga tegishli ravishda davlat namunasidagi quyidagi hujjatlar beriladi:

malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma;

qayta tayyorlash to'g'risidagi sertifikat.

22. Tinglovchilarga qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha davlat namunasidagi hujjatlar (sertifikat va guvohnoma)ni berish uchun Bosh ilmiy-metodik markazga buyurtma beradi hamda ularni o'rnatilgan tartibda tarqatishini ta'minlaydi.

Sertifikat va guvohnomalarni saqlashga va tarqatishga mas'ul shaxs tarmoq markazi direktori tomonidan tayinlanadi.

## **V. Xalqaro hamkorlik**

23. Tarmoq markazining xalqaro hamkorligi amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Markaz tegishli soha bo'yicha xorijiy mamlakatlarda qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ularning ijobiy tomonlarini ommalashtirish maqsadida o'zining xodimlari va pedagog kadrlarini chet elda tajriba almashishini tashkil etadi.

24. Tarmoq markazi xorijiy davlatlar jamg'armalari yoki universitetlari bilan hamkorlikda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va joriy etishi mumkin.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

25. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlari asosida hal etiladi.

26. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aktsiyadorlik temir yo'l kompaniyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan.